

LOGISTIKA TIZIMINING IQTISODIYOTGA TUTGAN O'RNI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

*Sobirov I.X. – Sam DAQU,
“Iqtisodiyot” kafedrası dotsenti, if.n.
Abdusamadov Javlonbek - Sam DAQU,
“Iqtisodiyot va boshqaruv” fakulteti 3 kurs talabasi*

Annotatsiya

Mazkur maqolada logistika tizimining milliy iqtisodiyotdagi o'rni, uning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri, ishlab chiqarish va savdo sohalarida tutgan roli tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekiston logistika infratuzilmasining hozirgi holati, rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari yoritiladi. Raqamli logistika, transport-kommunikatsiya tizimlari va xalqaro hamkorlik yo'nalishlari asosida iqtisodiyotning barqaror o'sishiga ta'sir qiluvchi omillar tahlil qilinadi.

Аннотация

В статье рассматривается роль логистической системы в национальной экономике, её влияние на экономическую эффективность, а также перспективы развития логистической инфраструктуры Узбекистана. Анализируется влияние цифровизации и международных транспортных коридоров на устойчивый экономический рост.

Annotation

This article explores the role of the logistics system in the national economy, its impact on economic efficiency, and the prospects for the development of Uzbekistan's logistics infrastructure. It also analyzes how digital logistics and international transport corridors influence sustainable economic growth.

***Kalit so'zlar** logistika tizimi, transport, iqtisodiyot, raqamli logistika, eksport, import, logistika markazi, xalqaro savdo, iqtisodiy o'sish.*

***Ключевые слова:** логистика, транспорт, экономика, цифровизация, экспорт, импорт, экономический рост, инфраструктура.*

***Keywords:** logistics system, transport, economy, digital logistics, export, import, infrastructure, sustainable growth.*

Kirish

Bugungi globallashuv jarayonlari va xalqaro iqtisodiy integratsiyaning chuqurlashuvi sharoitida logistika tizimining samarali ishlashi milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini belgilovchi hal qiluvchi omilga aylanmoqda. Logistika tizimi tovar, xizmat, moliyaviy resurs va axborot oqimlarini muvofiqlashtirgan holda ularni eng qisqa muddatda, minimal xarajatlar bilan manzilga yetkazishni ta'minlaydi. Shu

sababli, logistika zamonaviy iqtisodiyotning “asabi” yoki “qon tomiri” sifatida e’tirof etiladi — u ishlab chiqarish, savdo, transport, eksport-import, hatto davlat moliya siyosatining samaradorligiga bevosita ta’sir ko’rsatadi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, logistika tizimi bo‘yicha ilk islohotlar asosan transport infratuzilmasini yangilashga qaratilgan edi. Ammo 2017-yildan boshlab iqtisodiy islohotlar chuqurlashgani sayin, logistika tizimi yanada kompleks shaklda — transport, bojxona, axborot texnologiyalari va raqamli boshqaruvni o‘z ichiga oluvchi yagona iqtisodiy mexanizm sifatida qaralmoqda. 2025-yilga kelib, O‘zbekiston transport-logistika tarmog‘i YAIMning qariyb 9,6 foizini tashkil etdi. Bu 2020-yildagi 6,3 foizlik ko‘rsatkich bilan solishtirilganda sezilarli o‘sishni bildiradi. Raqamli iqtisodiyotning kengayishi logistika tizimining sifat jihatdan yangi bosqichga o‘tishiga sabab bo‘ldi. Masalan, 2024-yilda “UZLOG” va “Digital Transit” platformalari ishga tushirilgach, yuk tashish jarayonlarining raqamlashtirilgan ulushi 60 foizdan oshdi. Bu esa byurokratik kechikishlarni kamaytirib, tashqi savdo jarayonlarini tezlashtirdi. Shuningdek, avtomobil va temiryo‘l transporti orqali o‘tuvchi yuk hajmi so‘nggi besh yilda 1,8 baravar oshgan, bu esa logistika infratuzilmasining modernizatsiyasi samaradorligini ko‘rsatadi. Logistika tizimining iqtisodiyotdagi o‘rni nafaqat transport va savdo bilan cheklanmaydi. U ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, zaxiralarni boshqarish, ta’minot zanjirini qisqartirish, iste’molchi talabiga tezkor javob berish kabi vazifalarni ham bajaradi. Zamonaviy ishlab chiqarish va savdo korxonalari uchun logistika xarajatlari mahsulot tannarxining o‘rtacha 25–30 foizini tashkil etadi. Shuning uchun bu xarajatlarni kamaytirish milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishda strategik ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili So‘nggi yillarda logistika tizimining iqtisodiyotdagi o‘rni tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, O‘zbekiston sharoitida transport-logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish, yuk tashish jarayonlarini soddalashtirish va eksport-import operatsiyalarini tezlashtirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishiga aylangan. Mazkur sohada olib borilgan ilmiy tadqiqotlar logistika tizimini rivojlantirishda iqtisodiy samaradorlik, transport tarmoqlarining o‘zaro bog‘liqligi hamda logistika xizmatlarini optimallashtirish masalalariga e’tibor qaratgan. “Development of Transport Logistics in the Republic of Uzbekistan” nomli ilmiy maqolada logistika tizimining asosiy vazifalari, yuk oqimini tartibga solish hamda transport tarmoqlari o‘rtasidagi muvofiqlashtirish orqali iqtisodiy o‘sishga erishish masalalari yoritilgan. Mualliflar ta’kidlashicha, logistika infratuzilmasini kengaytirish milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini oshirishga, ichki bozorni esa samarali tovar aylanishi bilan ta’minlashga xizmat qiladi [1]. “Modern Approaches to the Development of Logistics in Uzbekistan” nomli maqolada esa logistika tizimining rivojlanishida davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari, transport markazlarini tashkil etish va bojxona jarayonlarini soddalashtirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish

muhim omil sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. Tadqiqotda ayniqsa, mintaqaviy transport yo‘laklaridan to‘liq foydalanish va xalqaro tranzit yo‘nalishlarini faollashtirish zarurligi alohida ta‘kidlanadi [2]. Boshqa bir tadqiqotda, “Assessing The Competitiveness Of Logistics And Trade In Uzbekistan (In The Logistics Performance Index)” nomli maqolada, O‘zbekistonning logistika tizimi xalqaro baholashlar asosida o‘rganilib, logistika samaradorligi va xizmat sifati ko‘rsatkichlari tahlil qilingan. Ma‘lumotlarga ko‘ra, logistika xizmatlarining yaxshilanishi tashqi savdo hajmini sezilarli oshirishga yordam bermoqda [3]. “Challenges and Opportunities for Investment in the Logistics Sector of Uzbekistan” maqolasida logistika sohasiga sarmoya jalb etish masalalari, mavjud infratuzilma muammolari va ularni bartaraf etish yo‘llari yoritilgan. Mualliflar fikricha, logistika tizimiga investitsiyalarni oshirish mamlakatda transport-kommunikatsiya tarmoqlarini kengaytirish va yangi ish o‘rinlarini yaratishda muhim rol o‘ynaydi [4]. Shuningdek, “Strategies for Advancing Green Logistics in Uzbekistan” nomli maqolada logistika tizimining barqaror rivojlanish yo‘nalishlari yoritilib, atrof-muhitga zarar yetkazmasdan yuk tashish va transport tizimidan samarali foydalanish masalalari ko‘tarilgan. Mualliflar fikricha, ekologik toza transport vositalarini keng joriy etish va logistika jarayonlarida resurs tejovchi usullardan foydalanish iqtisodiy foydani oshiradi [5].

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda logistika tizimining iqtisodiyotdagi o‘rni va rivojlanish istiqbollari nazariy, statistik va taqqoslash metodlari orqali o‘rganildi. Asosiy ma‘lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi va Jahon banki hisobotlaridan olindi. 2020–2025 yillar davomida logistika xizmatlari hajmi, transport infratuzilmasiga kiritilgan investitsiyalar hamda iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Tizimli yondashuv asosida logistika tizimining ishlab chiqarish va savdo tarmoqlari bilan o‘zaro bog‘liqligi o‘rganildi.

Tahlil va natijalar

So‘nggi yillarda logistika tizimi har qanday davlat iqtisodiyotining strategik sektori sifatida e‘tirof etilmoqda. Chunki zamonaviy ishlab chiqarish, tashqi savdo va investitsiya oqimlarining uzluksizligi logistika tarmog‘ining samaradorligiga bevosita bog‘liqdir. Mamlakat ichkarisida ham, xalqaro miqyosda ham tovarlar, xomashyo va xizmatlar harakati logistika infratuzilmasining holati bilan belgilanadi. Shuning uchun logistika tizimining rivojlanish darajasi iqtisodiyotning o‘sish sur‘atlari, eksport-import hajmi, transport xarajatlari va ishlab chiqarish samaradorligiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida logistika sohasiga so‘nggi yillarda alohida e‘tibor qaratilmoqda. 2017-yildan boshlab “Transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish strategiyasi”, “Temir yo‘l va avtomobil transportini modernizatsiya qilish dasturi”, shuningdek, “Tranzit salohiyatini oshirish konsepsiyasi” qabul qilinib, bu yo‘nalishda

ko‘plab investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, 2020–2025-yillar oralig‘ida transport-logistika xizmatlari hajmi sezilarli darajada o‘ydi.

O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligining 2025-yil uchun ma‘lumotlariga ko‘ra, logistika xizmatlari hajmi 2020-yildagi 32,8 trillion so‘mdan 2025-yilda 56,7 trillion so‘mga yetgan, bu esa 73 foizlik o‘shishni anglatadi. Quyidagi jadvalda logistika tarmog‘ining asosiy ko‘rsatkichlari yillar kesimida keltirilgan:

1-jadval Logistika


tarmog‘ining asosiy ko‘rsatkichlari

Yil	Logistika xizmatlari hajmi (trln so‘m)	Transport infratuzilmasiga investitsiya (mlrd \$)	Tranzit yuk hajmi (mln tonna)
2020	32.8	1.1	45.2
2021	37.5	1.3	48.9
2022	42.2	1.6	52.4
2023	48.9	2.0	58.1
2024	53.1	2.3	63.7
2025	56.7	2.7	68.5

Yuqoridagi ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdiki, logistika xizmatlari hajmi barqaror o‘shish tendensiyasiga ega. Xususan, 2020–2025-yillarda transport-logistika infratuzilmasiga yo‘naltirilgan investitsiyalar 2,5 barobarga ko‘paygan. Bu jarayon ichki ishlab chiqarish samaradorligini oshirgan, eksport jarayonlarini tezlashtirgan hamda mintaqaviy savdo aloqalarini kuchaytirgan.

Logistika tizimining iqtisodiyotdagi o‘rnini tahlil qilishda transport tarmoqlarining ulushi muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston transport sektorining umumiy YAIMdagi ulushi 2025-yil holatiga ko‘ra 8,2 foizni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich 2020-yildagi 6,7 foizga nisbatan 1,5 foiz punktga oshgan. Ayniqsa, avtomobil va temir yo‘l transporti tarmoqlari logistika oqimlarining asosiy qismini tashkil etadi — avtomobil transporti orqali 55 foiz, temir yo‘l orqali 35 foiz, qolgan 10 foiz esa havo va quvur transporti hissasiga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, 2025-yil holatiga ko‘ra, logistika samaradorligi indeksi (LPI) O‘zbekiston uchun 3,1 ballni tashkil etgan (Jahon banki baholashiga ko‘ra), bu esa 2020-yilga nisbatan 0,4 ballga yuqori. Bu o‘shish so‘nggi yillarda bojxona jarayonlarining raqamlashtirilishi, transport yo‘llarining modernizatsiyasi va logistika markazlarining soni ortgani bilan bog‘liq. Alohida e‘tiborga molik jihat — logistika tizimi orqali ish o‘rinlari sonining oshishidir. 2025-yilda logistika va transport sohasida band bo‘lganlar soni 320 ming kishiga yetgan, bu esa 2020-yilga nisbatan 27 foizga ko‘pdir. Mazkur tarmoqda faoliyat yuritayotgan xususiy logistika kompaniyalari soni ham 2,5 barobarga ortgan.

Logistika tizimining eksport va importdagi o‘rni O‘zbekistonning eksport salohiyatini oshirishda logistika tarmog‘ining roli beqiyos. Eksport hajmining o‘shishi bilan bir qatorda, tovarlarni tashish va saqlash xarajatlarining kamayishi eksportchi korxonalar raqobatbardoshligini oshirgan. Statistika ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda tashqi savdo hajmi 2020-yilga nisbatan 1,7 barobarga o‘shib, 65 milliard AQSH dollariga yetgan. Shu bilan birga, logistika xarajatlarining YAIMdagi ulushi 2020-yildagi 12,4 foizdan 2025-yilda 9,8 foizgacha kamaygan.



1-rasm. Logistika tizimining eksport va importdagi o‘rni

Bu kamayish logistika sohasida samaradorlik oshgani, transport infratuzilmasining yangilanishi, raqamli boshqaruv tizimlarining joriy etilishi bilan bog‘liqdir.

Hududiy tahlil

Mamlakat hududlari kesimida eng katta logistika salohiyatiga Toshkent shahri, Farg‘ona vodiysi viloyatlari va Navoiy viloyati ega. Ayniqsa, Navoiy xalqaro intermodal logistika markazining faoliyati eksport-import operatsiyalarini yengillashtirgan. Shu bilan birga, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida logistika infratuzilmasining rivoji sustroq, bu esa mintaqaviy iqtisodiy tafovutlarga sabab bo‘lmoqda.

Kelgusidagi rivojlanish istiqbollari

O‘zbekiston 2030-yilgacha bo‘lgan transport-logistika strategiyasiga ko‘ra, har yili o‘rtacha 5–6 foiz o‘shish sur‘atini saqlab qolish, yuk tashish hajmini 100 mln tonnadan oshirish, 15 ta yangi logistika markazini ishga tushirishni maqsad qilgan. Shu bilan birga, bojxona jarayonlarini soddalashtirish, avtomobil yo‘llarini xalqaro standartlarga moslashtirish, multimodal transport tizimini rivojlantirish ham ustuvor yo‘nalishlardan biridir. Logistika tizimining iqtisodiyotdagi ahamiyati shundaki, u milliy ishlab chiqaruvchilarni global bozorga bog‘laydi, yangi investitsiyalar uchun qulay muhit yaratadi va mintaqaviy iqtisodiy integratsiyani kuchaytiradi. Raqobatbardosh logistika tizimi mavjud bo‘lgan mamlakatlarda tashqi savdo xarajatlari 15–20 foizgacha

kamayadi, bu esa YAİM o‘shiga bevosita hissa qo‘shadi. O‘zbekiston sharoitida esa logistika sohasining modernizatsiyasi eksportga yo‘naltirilgan sanoat tarmoqlari, jumladan to‘qimachilik, oziq-ovqat, kimyo va qurilish materiallari ishlab chiqarish sohaslarining rivojlanishiga kuchli turtki bermoqda.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, logistika tizimi O‘zbekiston milliy iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida hal qiluvchi omilga aylangan. 2020–2025yillar davomida logistika xizmatlari hajmi, transport infratuzilmasiga investitsiyalar va tranzit yuk oqimlari sezilarli darajada oshgan. Bu esa mamlakatda ishlab chiqarish va tashqi savdo jarayonlarining samaradorligini oshirishga xizmat qilgan. Logistika tizimining takomillashuvi iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi. Xususan, eksport hajmining ortishi, transport xarajatlarining kamayishi, logistika samaradorligi indeksining ko‘tarilishi va yangi ish o‘rinlarining yaratilishi bu sohaning milliy iqtisodiyotdagi strategik ahamiyatini yanada mustahkamladi. 2025yilda logistika xarajatlarining YAİM dagi ulushi 9,8 foizgacha kamaygani soha samaradorligining oshganini tasdiqlaydi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, logistika tizimi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy jihatdan ham muhim o‘rin tutadi. U aholining bandligini oshiradi, mintaqalar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytiradi va milliy raqobatbardoshlikni kuchaytiradi. Shu sababli, logistika infratuzilmasiga kiritiladigan investitsiyalarni yanada ko‘paytirish, transport tarmoqlarini modernizatsiya qilish, bojxona jarayonlarini soddalashtirish va logistika markazlarini raqamlashtirish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi PF-60-son Farmoni.
2. Sobirov, I. X., and SH. Atabaeva. "RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARIDAN FOYDALANISH USULLARI." *Arxiv nauchnyx issledovaniy* 2.1 (2022).
3. Sobirov, I. X., and R. Ganiev. "RAQAMLI BANK-TARAQQIYOT TALABI." *BBK 65.011. 6 I 26* (2021): 642.
4. Strategies for Advancing Green Logistics in Uzbekistan — *American Journal of Business Management, Economics and Banking*, 2024.
5. Possibilities of Use of Information Technologies in the Development of Logistics in Uzbekistan — *Economics and Innovative Technologies (TSUE)*, 2024.